

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING  
2022/2023 O'QUV YILI NAVBATDAN TASHQARI YIG'ILISHI  
BAYONI**

**2022-yil 22-sentabr  
Katta yig'inlar zali**

**Buxoro shahri  
soat 9:00**

**Raislik qildi:**

**O.X. Xamidov** – kengash raisi, Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., prof.

**Ishtirok etganlar:**

**N.G. Dilova** – kengash kotibi, p.f.f.d. (PhD), dots.

BuxDU kengashi a'zolari umumiy soni: 77 nafar

Qatnashdi: 70 nafar kengash a'zosi va taklif qilinganlar (ro'yxat asosida)

Buxoro davlat universiteti kengashining 2022-2023 o'quv yilining navbatdan tashqari yig'ilishini kengash raisi, universitet rektori, i.f.d., professor O.X. Xamidov ochib berdi.

Kengash raisi navbatdan tashqari yig'ilishida 77 nafar kengash a'zosidan 70 nafari ishtirok etayotganligini, 7 nafar kengash a'zosi uzrli sabablarga ko'ra kengashda ishtirok etmayotganligini ma'lum qilib, yig'ilishni ochish to'g'risidagi masalani kengash a'zolari hukmiga havola etdi.

Kengash a'zolari yig'ilishni ochiq deb qabul qilishni bir ovozdan ma'qullashdi.

Shundan so'ng, kengash kun tartibi o'qib eshittirildi.

**KUN TARTIBI:**

**I. Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo'nalishi bo'yicha:**

**1.1.** Joriy yilning 15-16-sentabr kunlari Samarqand shahrida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) davlat rahbarlari kengashining 22-sammitining mazmun mohiyati va ahamiyati to'g'risida

**1.2.** Buxoro davlat universiteti faxriy professori unvonini berish to'g'risida.

**Ma'ruzachi: Rektor O.X. Xamidov**

**II Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari yo'nalishi bo'yicha:**

**2.** Universitetda 1-oktabr "O'qituvchi va murabbiylar kuni" bayramiga tayyorgarlik holati to'g'risida

**Ma'ruzachi: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha Birinchi prorektor A.A. Amonov axboroti**

**III O'quv jarayoni yo'nalishi bo'yicha:**

**3.1.** 2022/2023 o'quv yilida kafedralarda o'quv va masofaviy ta'lim jarayonining tashkil qilinishi, sifati va talabalarning o'qish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, kontentlarni texnik va mazmunan tahlil qilish to'g'risida

**3.2.** 2022/2023 o'quv yilida universitet kafedralari tomonidan amalga oshirilgan dars taqsimotlariga ko'ra professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyati tahlili to'g'risida

**Ma'ruzachi: O'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G. Jumayev axboroti**

**IV. Ilmiy ishlari va innovatsiyalar yo'nalishlari bo'yicha:**

**4.1.** Universitet innovatsion kengashining 2022-yil uchun ish rejasini tasdiqlash to'g'risida;

**4.2.** Universitet innovatsion jamg‘armasining 2022-yil uchun daromadlar va xarajatlar smetasini prognoz parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida;

**4.3.** Universitet innovatsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq innovatsion jamg‘arma mablag‘lari tomonidan to‘liq hamda qisman moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalarni tanlov asosida tanlab olish tartibini belgilash;

**4.4.** Universitet huzurida qishloq xo‘jaligida biotexnologiyalarni qo‘llash sohasida “Bukhsu Scientific Biotechnology” unitar korxonasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida.

**Ma’ruzachi: Ma’ruzachi: IIITB boshlig‘i O.O. Sayfulloyev**

**V. Turli masalalar.**

**5.1.** 2022-2023 o‘quv yilida ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda Xorijiy fuqaroligi bo‘lgan talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini belgilash to‘g‘risida

**5.2.** Professorlik va dotsentlik unvoniga tavsiya qilish uchun professor - o‘qituvchilarning attestatsiya ishi hujjatlarini OAK ga yuborish to‘g‘risida

**5.3.** Universitet ta’lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalb qilish, 2022-2023 o‘quv yilda jalb qilinishi rejalashtirilgan professor-o‘qituvchilar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida

Kengash raisi kun tartibiga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish mumkinligini ma’lum qilib, kun tartibini tasdiqlab berishni ovozga qo‘ydi.

Kengash a’zolari kun tartibini bir ovozdan ma’qullashdi hamda masalalar muhokamasi reglamenti belgilab olindi.

**Ushbu kun tartibi va reglamenti xususida takliflaringiz bormi?**

**Ovozlar:** tasdiqlansin.

**RAIS:** kun tartibini tasdiqlash to‘g‘risida taklif bo‘ldi. Uni ovozga qo‘yaman.

Tarafdarlar 70 nafar

Qarshilar – yo‘q.

Betaraflar – yo‘q.

Demak, kun tartibi tasdiqlandi. Kun tartibidagi maslalar muhokamasiga o‘tamiz.

## KUN TARTIBI BO‘YICHA MASALALAR MUHOKAMASIGA O‘TILDI

I.Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo‘nalishi bo‘yicha:

**1.1. Joriy yilning 15-16-sentabr kunlari Samarqand shahrida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) davlat rahbarlari kengashining 22-sammitining mazmun mohiyati va ahamiyati to‘g‘risida**

**ESHITILDI: O.X. Xamidov** (kengash raisi, rektor) kengash a’zolariga Joriy yilning 15-16-sentabr kunlari Samarqand shahrida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) davlat rahbarlari kengashining 22-sammitining mazmun mohiyati va ahamiyati to‘g‘risida axborot berdi.

Barchaga ma’lumki, Samarqand shahrida joriy yil 15-16-sentabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) davlat rahbarlari kengashining 22-sammiti bo‘lib o‘tdi. Butun dunyo hamjamiyatining diqqat markazi ushbu ShHT Samarqand sammitining mazmun mohiyatiga qaratildi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yig‘ilish doirasida dunyo yetakchilari bugungi kunda ishonch va o‘zaro bir-birini tushunish taqchilligi sezilayotgan, qarama-qarshiliklar va nizolar kuzatilayotgan bir sharoitda ShHT Samarqand sammitining o‘tkazilishi ijobiy voqelik ekanligini e’tirof etdi.

Tarixga nazar tashlasak, Samarqand azaldan tarixiy uchrashuvlar va sivilizatsiyalar muloqoti maskani, madaniy-gumanitar o‘zaro boyish va xalqaro savdoni rivojlantirish, yaxshi qo‘schnichilikni mustahkamlash vositasi bo‘lib kelgan. Samarqand – sayyoramizdagi eng qadimiy shaharlardan biri, Rim va Afina bilan tengdosh ekani tarixdan yaxshi ma’lum. Temuriylar davrida Samarqandga ilm-fan, madaniyat va ma’rifatning markazi sifatida butun dunyo olimlari va san’at arboblari talpingan. Shuning uchun Samarqandni Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining bebafo xazinasi deb atashadi. Bu yerda o‘rta asr me’morhiligining eng buyuk yodgorliklari saqlanib qolgan bo‘lib, ularning har biri alohida e’tiborga loyiq. Boy tarixiga qaramay, shahar o‘ziga xosligi va betakror qiyofasini yo‘qotmagan. Bugungi kunda Samarqand eng go‘zal va madaniy jihatdan betakror shaharga aylangan. Buyuk shahar ekanligiga isbot o‘laroq tadbirda “Samarqand – biz ShHT ni tuzishda asos qilib olgan bag‘rikenglik va turli xalqlarning an’ana va qadriyatlariga hurmat tamoyillari asrlar davomida hayotga tatbiq etilgan jonli namunadir”, dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Ta’kidlash joizki, asosiy tadbirdarning ilk kunida tashkilotga a’zo va kuzatuvchi davlatlar yetakchilari o‘rtasida ikki tomonlama uchrashuvlar hamda bir qator madaniy tadbirlar o‘tkazildi. Bugun esa kunning birinchi qismida ShHT ga a’zo davlatlar kengashining dastlab tor doiradagi keyin esa, kengaytirilgan tartibdagи majlislari bo‘lib o‘tdi.

Jumladan, sammitga raislik qiluvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan tashkilot faoliyatini yanada jonlantirishga qaratilgan bir qator tashabbuslar ilgari surildi.

Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z tarkibida siyosatchilar, jamoat arboblari, oimlar va ekspert-ekologlar, biznes vakillarini birlashtira oladigan ShHT Iqlim kengashini tuzishni taklif qildi. Shuningdek, ShHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi samaradorligini oshirish, jumladan, xavfsizlikka tahdid va xavf-xatarlardan ogohlantirish, ularga tezkorlikda munosabat bildirishga oid shartnomalar asosida ushbu tuzilmaning faoliyatini takomillashtirish zarurligi ta’kidlandi.

Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi kengashining yillik sayyor yig‘ilishlari amaliyotini yo‘lga qo‘yish muhimligi, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish uchun qo‘shma platformani yaratish vazifasi tobora dolzarb bo‘lib borayotgani qayd etildi.

O‘z navbatida O‘zbekiston tomonidan xalqaro darajada uchrashuv va muloqtlarda ilgari surib kelinayotgan tashabbus – Afg‘onistonni gumanitar qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus fondni mazkur mamlakatga chegaradosh bo‘lgan Termiz shahrida – u yerdagi mavjud transport-logistika xabining zamonaviy infratuzilmasidan foydalangan holda birgalikda ta’sis etish taklif qilindi.

Shu bilan birga kengaytirilgan tartibdagi majlis doirasida yana bir qator dunyo yetakchilarini tomonidan ham tashkilot faoliyati samaradorligini oshirish, ro'y berayotgan geosiyosiy keskinliklarni to'g'ri baholashga qaratilgan tashabbuslar ham aytib o'tildi. Shuningdek, dunyo yetakchilarini tomonidan mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash orqali ko'p tomonli hamkorlikni kengaytirish, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish va qayta ishslash dasturlarini yo'lga qo'yish, yuqori sifatlari va arzon oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish uchun samarali logistika, "yashil" va ekspress-yo'laklarni tashkil etish, iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun mintaqaviy hamkorlikning ishonchli modellaridan foydalanish kabi masalalar ham atroflicha muhokama qilindi.

E'tiborli jihat shundaki, mamlakatimiz rahbari madaniy-gumanitar aloqalar an'anaviy ravishda hamkorlikning mustahkam asosi ekanini ta'kidladi. Xalqlar o'rtaqidagi mustahkam do'stlik va bir-birini o'zaro to'g'ri tushunish ShHT mintaqasidagi tinchlik va keng qamrovli sheriklik garovidir.

Bildirilishicha, bugun qabul qilinayotgan uzoq muddatli yaxshi qo'shnichilik, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani amalga oshirish bo'yicha kompleks reja shu maqsadlarga qaratilgan.

ShHT doirasida universitet rektorlari forumi, madaniyat va turizm kunlari, qo'shma sport tadbirlari va universiadalar singari qo'shimcha formatlarni ta'sis etish zarurligi qayd etildi. Madaniyatlararo muloqot raqamli platformalarini ishga tushirish taklif etildi. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, O'zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkilotiga raisligi dunyo miqyosida shiddatli jarayonlar kechayotgan o'ziga xos o'zgarishlar pallasiga to'g'ri kelgani, ShHT ning Samarqandda bo'lib o'tadigan sammiti madaniy-sivilizatsion qarashlari turlicha, o'z tashqi siyosiy yo'nalishlari va milliy taraqqiyot modellariga ega mamlakatlarni birlashtirishga muvaffaq bo'lgan noyob maskanga aylanadi.

Yuqoridagi masalalar bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari eshitildi.

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Kengash raisi O.X. Xamidovning Joriy yilning 15-16-sentabr kunlari Samarqand shahrida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) davlat rahbarlari kengashining 22-sammitining mazmun mohiyati va ahamiyati to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Samarqand shahrida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) davlat rahbarlari kengashining 22-sammitining mazmun mohiyati va ahamiyati haqidagi ma'lumotlar barcha kafedra professor - o'qituvchilariga ma'lumot tariqasida yetkazilsin.
3. Ushbu qaror ijro nazorati fakultet dekanlari, bo'lim boshliqlari va kafedra mudirlari zimmasiga yuklatilsin

---

## 1.2. Buxoro davlat universiteti faxriy professori unvonini berish to'g'risida.

**ESHITILDI: O.X. Xamidov (kengash raisi, rektor)** kengash a'zolariga ushbu masala haqida axborot berdi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021-yilda Luvr muzeyida (Parij shahri) O'zbekiston muzey eksponatlari ko'rgazmasi o'tkazilishini tashkil etish hamda xorijda O'zbekiston muzey fondlarining samarali namoyish qilinishiga sharoitlar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 7-martdagi F-5455-son farmoyishiga muvofiq Luvr muzeyida O'zbekiston muzey eksponatlari ko'rgazmasini tashkil etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Jahonga mashhur Luvr muzeyida MDH davlatlari o'rtaqidagi ilk bora O'zbekiston muzey eksponatlari ko'rgazmasini tashkil etish va o'tkazishda, shuningdek mamlakatmizning ilm-fani, madaniyati va san'ati, yurtimiz madaniy merosini asrab-avaylash, saqlash va keyingi avlodga yetkazishda mashhur fransuz arxeologi, olim Rokko Rantening hissasi juda kattadir.

Rokko Rante 2009-yildan buyon O'zbekiston va Fransiya o'rtasida madaniyat, san'at, arxeologiya kabi sohalarda faoliyat yuritib kelmoqda. Olim Luvr muzeyida bo'lib o'tadigan O'zbekiston muzey eksponatlari ko'rgazmasi tashkilotchisi sifatida boy madaniy merosimizni targ'ib qilish va ikki tomonlama foydali loyihalarni amalgga oshirishda ishonchli va samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Rokko Rante tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari mamlakatimizda arxeologiya fanini rivojlantirish va xalqaro maydondag'i ijobjiy mavqeini yaxshilashda ko'rsatgan tashabbuskorligi alohida e'tiborga molik.

Shu munosabat bilan, Rokko Rantening O'zbekiston madaniyati va arxeologiyasiga qo'shgan beminnat hissasini munosib rag'batlantirish maqsadida, Buxoro vohasida olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari, chop ettirgan kitoblari va ilmiy maqolalari salmog'i, xalqaro konferensiya va seminarlardagi faol ishtirokini inobatga olgan holda, unga Buxoro davlat universiteti faxriy professori unvonini berish masalasi kun tartibiga qo'yilmoqda.

Rokko Rantening biografiyasi bilan tanishtirish uchun so'z xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor **A.Jo'rayevga** berildi.

Prorektor A.Jo'rayev R.Rantening biografiyasi va ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishtirdi.

Rokko Rante 1977-yilda Italiyaning Rim shahrida tug'ilgan. La Sapienza universitetida arxeologiya va islom san'ati tarixi bo'yicha ta'lif olgan. 2009-yilda Fransyaning Provans Eks-Marsel universitetida shu ixtisoslik bo'yicha doktorlik darajasini olgan. 2009-yilda Buxoro vohasida fransuz-o'zbek qo'shma arxeologik missiyasiga asos solgan. Vohadagi qazilma ishlari nafaqat bir hududda, balki butun voha bo'ylab mintaqaviy ilmiy dastur doirasida beshta joyda, jumladan Romitan, Poykent, Iskijkat va Qoqishtuovn tadqiqot va qazilma ishlari olib borilgan. 2020-yilda professor unvoniga sazovor bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining olimlari va arxeologlari bilan uzoq yillar davomida hamkorlik olib borgan, bir qancha fransuz va o'zbekistonlik talabalarning ilmiy ishlariga, tadqiqotchilarning doktorlik dissertatsiyalariga rahbarlik qilgan.

Buxoro va boshqa vohalar madaniy merosini asrash yo'nalishida O'zbekiston, Fransiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Eron va boshqa mamlakatlarda o'tkazilgan anjumanlarda faol qatnashgan.

O'zbekistonlik hamkasbleri bilan hamkorlikda dunyoning eng mashhur universitetlarida O'zbekiston va uning tarixi, tamadduni va madaniyati haqida ma'lumot berish maqsadida yuqori saviyadagi ma'ruzalarni o'qigan, maqolalar va kitoblar, kitoblarda bir qancha boblarni nashr qilgan, shu jumladan:

Buxoro vohasi - 1. Aholi va turar-joyning tadrijiy rivojlanishi. 1- jild, BRILL, Leyden-Boston, 2019 y.;

Buxoro vohasi - 2. Buxoro vohasining shahar tuzilishi , toponimlari va ijtimoiy-arxeologik tarmoqlari. 2-jild, (Florian Shvars va Luiji Tronka bilan), BRILL, Leyden-Boston, 2022 y.;

Buxoro vohasi - 3. Moddiy madaniyat, arxeozoologiya, ijtimoiy tuzilma va ijtimoiy-arxeologik tahlil. 3- jild, BRILL, Leyden-Boston, 2022-yil;

Daryolar o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan aholi turar-joylarini harakatga keltiruvchi kuch va tijorat xatti-harakatlaridagi o'zgarishlar: "Shimoli-sharqiy Ipak yo'lining paydo bo'lishi. "Arxeologiya fanlari" jurnali, 2016 y.;

Buxoro va Qorako'l vohalarida neolit davridan beri tabiiy to'g'onlarning qulashi natijasida yuzaga kelgan halokatli toshqinlarning o'rni: Dastlabki o'rganishlar natijalari. International Journal of Geohazards and Environment ("Xalqaro geografik xavflar va atrof-muhit") jurnali, 2016 y.;

Poykent yashash muhitining tadrijiy rivojlanishi. Milodiy birinchi ming yillikda Eron va Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati: Islomgacha bo'lgan davrdan Islom davrigacha, Notr Dam universiteti nashri, De Gruyter, Berlin, 2020 y.:

Poykent qazimalari: yangi ashyolar. Markaziy Osiyoda fransuz arxeologiyasining 25 yilligi. Yangi usullar, yangi istiqbollar , Julio Bendezu-Sarmiyento tahririyyati, de Bokkard, Parij, 2013 y.;

Poykentdagi qazishmalar. O'zbekiston: CNRS (Fransiya milliy ilmiy-tadqiqot markazi, O'rtayer dengizidagi o'rta asrlar va zamonaviy arxeologiya laboratoriysi , Eks-an-Provans) bilan

hamkorlikda olib borilgan fransuz-o'zbek tadqiqot dasturi, Luvr muzeyidagi tadqiqotlar-2010, Parij, 2011 y.

Shuningdek, Rokko Rante quyidagi xalqaro konferensiya va seminarlarda O'zbekiston va xususan Buxoro vohasi madaniy merosi va arxeologiyasi to'g'risida ma'ruzalar bilan ishtirok etgan:

- 2015, 2016, 2017, 2018-yillarda Garvard universitetida;
- 2015 , 2016, 2017, 2018-yillarda Pensilvaniya universitetida;
- 2017-yilda Yaponianing bir nechta universitetida;
- 2017-yilda Yyel universitetida;
- 2017-yilda London universiteti kollejida;
- 2017-yilda Notr Dam universitetida.

Rokko Rante "Ipak va ziravorlar" festivalining faxriy mehmoni sifatida festivalda bir necha marotaba ishtirok etgan.

2022-yilning noyabr oyida Luvr muzeyining Islom san'ati bo'limi mudiri Yannik Lins bilan hamkorlikda "O'zbekiston vohalarining xazinalari. Karvon yo'llari chorrahasida" nomli ko'rgazmani tashkil etmoqda.

**Kengash raisi, rektor O.Xamidov** Rokko Rantening ilmiy faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, kengash a'zolaridan R.Rantega Buxoro davlat universiteti faxriy professori unvonini berish to'g'risida fikrlarni so'radi.

**So'zga chiqdilar:** O'quv ishlari bo'yicha prorektor R.Jumayev, "Buxoro tarixi" kafedrasni professori H.To'rayev so'zga chiqib, R.Rantening O'zbekiston madaniy merosini saqlash va dunyoga tanitish, shuningdek Buxoro vohasi arxeologiyasini rivojlantirishga qo'shgan hissasini inobatga olgan holda, unga universitet faxriy professori unvonini berish taklifini qo'llab-quvvatladilar.

Kengash raisi, rektor O.Xamidov ushbu masalani ovozga qo'ydi.

Rozilar – 70 nafar  
Qarshilar - yo'q  
Betaraflar - yo'q

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. O'zbekiston madaniyati va arxeologiyasiga, yurtimiz madaniy merosini asrab-avaylash, saqlash va keyingi avlodga yetkazishga qo'shgan beminnat hissasi, Buxoro vohasida olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari, chop ettirgan kitoblari va ilmiy maqolalari salmog'i, xalqaro konferensiya va seminarlardagi faol ishtirokini inobatga olgan holda, fransuz olimi Rokko Rantega Buxoro davlat universiteti faxriy professori unvoni berilsin.

2. Rokko Rantega Buxoro davlat universiteti faxriy professori diplomi va mantiyasi taqdim etilsin.  
3. Universitet rektorining tegishli buyrug'i rasmiyshtrilisin.

---

**II Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishi bo'yicha:**

**2. Universitetda 1-oktabr "O'qituvchi va murabbiylar kuni" bayramiga tayyorgarlik holati to'g'risida**

**ESHITILDI: A.A. Amonov** (Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha Birinchi prorektor) kengash a'zolariga Universitetda 1-oktabr "O'qituvchi va murabbiylar kuni" bayramiga tayyorgarlik holati, tuzilgan chora-tadbirlar to'g'risida axborot berdi va barcha professor o'qituvchilarni **1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan** "O'qituvchi va murabbiylar – Yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch va suyanchimizdir" mavzuida

universitetda tashkil etiladigan tadbir dasturi bilan tanishtirdi. Barchani ushbu tadbirning mazmunli va samarali o'tishida faol ishtirok etishga chaqirdi. (*bayram dasturi bayonnomaga ilova qilinadi*)

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** - "Universitetda 1-oktabr "O'qituvchi va murabbiylar kuni" bayramiga tayyorgarlik holati to'g'risida" gi masala bo'yicha kimda qanday savol, takliflar bor? Marhamat!

Kengash a'zolarining takliflari eshitildi.

Ushbu masala bo'yicha universitet rektori O.X. Xamidov so'zga chiqib, tadbirni yuqori saviyada o'tkazishga oid o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha Birinchi prorektor A.A. Amonovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. **1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan** "O'qituvchi va murabbiylar – Yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch va suyanchimizdir" mavzuida universitetda tashkil etiladigan tadbir yuqori saviyada o'tkazilsin.

3. Ushbu tadbirda universitet jamoasining faol ishtiroki ta'minlansin.

Mazkur qaror ijro nazorati Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha Birinchi prorektor A.A. Amonov zimmasiga yuklatilsin.

---

### III O'quv jarayoni yo'nalishi bo'yicha:

**3.1. 2022/2023 o'quv yilida kafedralarda o'quv va masofaviy ta'lim jarayonining tashkil qilinishi, sifati va talabalarning o'qish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, kontentlarni texnik va mazmunan tahlil qilish to'g'risida**

**ESHITILDI: R.G. Jumayev** (O'quv ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga 2022/2023 o'quv yilida kafedralarda o'quv va masofaviy ta'lim jarayonining tashkil qilinishi, sifati va talabalarning o'qish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, kontentlarni texnik va mazmunan tahlil qilish to'g'risida axborot berdi

2022/2023 o'quv yilida 42 ta kafedrada 961 shtat birligida 900 nafardan ortiq professor-o'qituvchilar 21.09.2022-yil holatida faoliyat ko'rsatadi. O'quv yuklamasi hajmi 918 080 soat bo'lib, tashqi o'rindoshlik asosida 34 nafar, soatbay asosida 58 nafar o'qituvchi ishlaydi, vakant shtatlar soni 36 nafarni tashkil etadi. Hisobot davrida Uniwork platformasiga o'quv yuklamasini kiritish holati qoniqarli emas, umumiy soat hajmining atigi 8,9 % ma'lumotlari tizimga kiritilgan. Bu borada Fizika, Differensial tenglamalar, Matematik analiz, Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari, Arxeologiya va Buxoro tarixi, Elektronika va texnologiya, Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedralarida tizimli ishlari tashkil etilgan bo'lsada, 21 ta kafedraning faoliyati qoniqarsiz.

HEMIS platformasi asosida ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 5907 nafar talaba hisobot davrida 160 soatdan 2 soatgacha dars qoldirgan (o'tgan o'quv yilidan ham mavjud).

HEMIS tizimida talabalarning darslarga qatnashishi tahlil qilinganda, hisobot davrida ko'p qoldiradigan talabalar mavjud. Bu bo'yicha fakultet mas'ullari o'quv yili boshidan talabalar bilan manzilli ishlashi, talabalar davomatini ta'minlashi lozim. Ayniqsa, kechki ta'limda tahsil olayotganlarning davomati talab darajasida emas. Shu bilan bir qatorda professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv mashg'ulotlarga qatnashmagan talabalarni to'liq qayd etish holati yaxshi emas, ya'ni darsda ishtirok etmagan talabalar to'liq tizimda qayd etilmayapti.

1-kursga to‘lov-konrakt asosida o‘qishga tavsiya etilganlarni ma’lumotlarini tizimga joylashtirishda xatoliklar mavjud. Jumladan, Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 14 ta grant asosida tahsil olishi belgilangan bo‘lsada, tizimga 48 nafar grant etib biriktirilgan. Natijada talabalarning shartnomasi olishlari sun’iy cheklangan. Barcha fakultet mas’ullari tizimdagi xatoliklarni bartaraf etishi lozim (1-kun muddatda).

O‘quv jarayonini tashkil etishda, ba’zi guruhlarda amaliy yoki laboratoriya mashg‘ulotlari ma’ruza soatlardan oldin o‘tish holatlari aniqlandi.

2022-yil 5-sentabrdan 20-sentabr kunlari darslarni o‘tib, ro‘yxatdan o‘tkazmaslik holatlari uchradi.

2022-yil 5-sentabr holatida 7848 nafar talaba kursdan kursga o‘tkazilgan bo‘lsa, kunlik olib borilgan tanqidiy-tahliliy o‘rganishlar natijasida 21-sentabr holatida 3192 nafar talaba kursdan kursga o‘tkazilmagan.

2022-yil 5-sentabr holatida 279 ta akademik guruhda dars jadvallari shakllantirilgan bo‘lsa, 1-kurslarga 2 haftalik, 2-kurslarga 1 haftalik kredit-modul haftaligidan so‘ng 705 ta guruhda dars jadvallari shakllantirilgan.

2022-yil 9-sentabr oyidan boshlab O‘quv-uslubiy departament xodimlari tomonidan davomat yuritish doimiy monitoringi olib borilmoqda.

<b>№</b>	<b>Sana</b>	<b>Kafedra soni</b>	<b>Davomat yuritilmagan soatlar</b>
<b>1.</b>	09.09.2022-yil	22	77
<b>2.</b>	13.09.2022-yil	29	118
<b>3.</b>	14.09.2022-yil	32	204
<b>4.</b>	15.09.2022-yil	29	131
<b>5.</b>	16.09.2022-yil	20	65
<b>6.</b>	17.09.2022-yil	14	33
<b>7.</b>	19.09.2022-yil	30	134

2022-yil 19-sentabr kuni ijro intizomini mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan prorektor huzuridagi yig‘ilishda professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘tilgan darslarning ro‘yxatdan o‘tkazishning oxirgi muddati keyingi kun soat 10:00 gacha etib belgilandi va dekanlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Universitetda “Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 6-bandiga muvofiq universitetda talabalar o‘qishini ko‘chirish (ko‘chirib tiklash) bo‘yicha hujjatlarni qabul qilish bo‘yicha Ishchi guruh tuzildi. Shuningdek, Nizomga muvofiq o‘qishini ko‘chirish (ko‘chirib tiklash) masalalari bo‘yicha murojaat etayotgan talabalarning arizalarini o‘rganish va tegishli qaror qabul qilish maqsadida universitetda 26 nafar tarkibdan iborat komissiya shakllantirildi. Oliy ta’lim muassasalari talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalari talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom asosida amalga oshirildi.

Bugungi kunda universitetda o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash bo‘yicha jami 637 ta ariza tushdi, jumladan, Ta’lim shaklini o‘zgartirish bo‘yicha 390 nafar (127 nafari yozma murojaat), o‘qishni tiklash bo‘yicha 84 nafar, o‘qishni ko‘chirish bo‘yicha (Respublika OTMlari aro) 163 nafar fuqarolardan murojaat tushgan. Talabalar o‘qishini ko‘chirish va tiklash komissiyasi qarori asosida universitetda tahsil olayotgan talabalarning ta’lim yo‘nalishlarini o‘zgartirish bo‘yicha murojaatlariga rad javobi berildi.

2022-yilning 9 oyi davomida professor-o‘qituvchilar tomonidan 92 ta darslik va 188 ta, jami 290 ta o‘quv adabiyoti yaratildi. Jamoa shartnomasi, KPI tizimi, ilmiy darajali professor-o‘qituvchilar uchun 1030-Qarori asosida rag‘batlantirish belgilangangan bo‘lsada, yoki ilmiy unvonlar olishda o‘quv adabiyotlar ham hisobga olinayotganligiga qaramasdan hisobot davrida mazkur adabiyotlarning kitob holida nashr ettirish ishlari qoniqarli emas, (44 ta) 15% ni tashkil

etadi. Kafedra mudirlaridan adabiyotlarni kitob holida nashr etish ishlarini mualliflar bilan kelishgan holda tashkil etishlari lozim.

2022-yili sentabr oyida 24 nafar professor-o‘qituvchi malaka oshirishi rejalashtirilgan bo‘lsa, 20 nafari ishtirok etmoqda. 2 nafar ishdan bo‘shagan, 1 nafari tug‘ruq ta‘tilida va 1 nafar O‘zDJTU da malaka oshirish tashkil etilmaganligi msababli ishtirok etmayapti. Joriy yilning oktabr oyida 36 nafar professor-o‘qituvchining malaka oshirishi rejalashtirilgan (5 nafari ishdan bo‘shagan). Kafedra yig‘ilishlarida mazkur masalani ham ko‘rib chiqib, portfolio tizimini to‘ldirish (hujjatlarni qalbakilashtirmsandan to‘ldirish), ularning o‘quv mashg‘ulotlarini tartibga olish lozim.

2022/2023 o‘quv yilining boshlanishi munosabati bilan ko‘plab fuqarolar, ota-onalar hamda talabalar universitet rahbariyati va fakultet rahbariyati ga murojaatlari ko‘paygan. Biroq, murojaatlarni ro‘yxatga olish va tizimli ishslash yakuniga yetkazilmagan. O‘tgan o‘quv yilidaga dekanatdagi ish yuritish hujjatlarini to‘g‘ri rasmiylashtirish lozim, ayniqsa reyting qaydnomalarida kafedra mudirlari, ayrimlarida dekan imzosi va imtihon o‘tkazilgan sanalar qayd etilmagan. Ayniqsa, bu qayta topshirish qaydnomalarida ko‘proq uchraydi.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** - “2022/2023 o‘quv yilida kafedralarda o‘quv va masofaviy ta’lim jarayonining tashkil qilinishi, sifati va talabalarning o‘qish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, kontentlarni texnik va mazmunan tahlil qilish to‘g‘risidagi o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G. Jumayev hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Kengash a’zolarining takliflari eshitildi.

Ushbu masala bo‘yicha universitet rektori O.X. Xamidov so‘zga chiqib, o‘quv jarayonini yuqori saviyada tashkil qilishga oid o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi**:

1. 2022/2023 o‘quv yilida kafedralarda o‘quv va masofaviy ta’lim jarayonining tashkil qilinishi, sifati va talabalarning o‘qish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, kontentlarni texnik va mazmunan tahlil qilish to‘g‘risidagi o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G. Jumayev hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2022/2023 o‘quv yilida kafedralarda o‘quv va masofaviy ta’lim jarayonining tashkil qilinishi, sifati va talabalarning o‘qish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, kontentlarni texnik va mazmunan tahlil qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb hisoblansin.

3. 2022/2023 o‘quv yilida kafedralarda o‘quv va masofaviy ta’lim jarayonining tashkil qilinishi, sifati va talabalarning o‘qish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, kontentlarni texnik va mazmunan tahlil qilish yuzasidan mazkur kengash qarori barcha fakultetlar kengashlarining navbatdagi yig‘ilishlarida muhokama qilinsin va ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish chora – tadbirlari belgilansin. (mas’ullar: fakultet dekanlari; muddat: 10 kun davomida).

4. Ta’lim yo‘nalishlarining va mutaxassisliklarning o‘quv jarayoni jadvali, ishchi o‘quv rejalar, tanlov fan dasturlari va professor-o‘qituvchilarining shaxsiy ish rejalarini tasdiqlash hamda ilmiy darajasi bo‘lmagan o‘qituvchilarga ma’ruza soatlarini ajratilishi ta’milansin (mas’ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari)

5. Universitetda joriy qilingan HEMIS va UNIWORK platformalarda kafedra yuklamalari qisqa muddatda shakllantirilsin. Kafedra professor o‘qituvchilarini tomonidan davomat kunlik borilishi ta’milansin. (mas’ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari)

6. O‘qishni ko‘chirish, tiklash jarayonlari komissiya qaroriga asosan buyruqlar shakllantirilsin, o‘qishi rad etilgan talabalar tegishli tartibda xabador qilinsin. (mas’ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari)

7. Mazkur qarolarning ijro nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

**3.2. 2022/2023 o‘quv yilida universitet kafedralari tomonidan amalga oshirilgan dars taqsimotlariga ko‘ra professor-o‘qituvchilarining ilmiy salohiyati tahlili to‘g‘risida**

**ESHITILDI: R.G‘. Jumayev** (O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor) kengash a’zolariga 2022/2023 o‘quv yilida universitet kafedralari tomonidan amalga oshirilgan dars taqsimotlariga ko‘ra professor-o‘qituvchilarining ilmiy salohiyati tahlili to‘g‘risida axborot berdi.

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor **R.G‘. Jumayev** o‘z nutqida 2022/2023 o‘quv yilida universitet kafedralari tomonidan amalga oshirilgan dars taqsimotlariga ko‘ra hozirda universitet professor-o‘qituvchilarining ilmiy salohiyati o‘rtacha 31% ni tashkil etayotganligini, bu respublika OTMlari o‘rtacha ilmiy salohiyatidan past ekanligini quyidagi ma’lumotnomma asosida tahlil qilib berdi

**Buxoro davlat universiteti kafedralarining ilmiy-pedagogik salohiyati haqida umumiy  
M A ’ L U M O T**

t/r	Kafedralar nomi	Kafedraga ajratilgan shtat birligi	Asosiy va ichki o‘rindoshlik shtatda ishlayotgan o‘qituvchilar soni												Ilmiy-dara va unvonga ega bo‘lmagan o‘qituvchilar soni	Ilmiy-pedagogik salohiyati, % xisobida*	Tasdiqi o‘rindosh pedagoglar soni	Soatbay pedagoglar soni	Vakant shtatlar
			Fan doktorlari (DSc)			Fan nomzodlari (PhD)			Jami			Professorlar			Dotsentlar			Jami	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16				
<b>2022-2023 o‘quv yili bo‘yicha</b>																			
1	O‘zbek tili va adabiyoti	27,5	24	6	10	16	0	2	0	2	6	75,0	0	0					
2	O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika	23	17	3		3		6	2	8	6	64,7		1					
3	Umumiy va noorganik kimyo	12	16	1		1		7		7	8	50,0							
4	Yuristprudensiya va ijtimoiy siyosiy fanlar	27,2	28	1		1		13		13	14	50,0	0	4	0				
5	Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi	15,2	20	1	0	1	0	6	2	8	11	45,0	2						
6	Psixologiya va sotsiologiya	28	29	0	5	5	0	6	2	8	16	44,8	2	0					
7	Organik va fizkolloid kimyo	14,7	18	1		1	1	5	1	7	10	44,4							
8	Elektronika va texnologiya	11	12	0	0	0	0	4	1	5	7	41,7	0	3					
9	Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi	19,5	25	1	0	1	0	7	2	9	15	40,0	2	0	1				
10	Tasviriy va amaliy san’at	22	25	1	4	5	2	3		5	15	40,0	1						
11	Agronomiya va tuproqshunoslik	13	13	0	0	0	0	5	0	5	8	38,5	0	1					
12	Geliofizika va qayta tiklanuvchi energiya manbalari	12	13	3		3		2		2	8	38,5							
13	Sport faoliyati	22	21	2	0	2	0	6		6	13	38,1	0	0	0				
14	Fizika	16,5	16	1		1		4	1	5	10	37,5							

15	Pedagogika	21	22	1	0	1	1	5	1	7	14	36,4	0	0		
16	Differensial tenglamalar	15	14			0		4	1	5	9	35,7	2	12		
17	Arxeologiya va Buxoro tarixi	28,2	31	2		2		7	2	9	20	35,5				
18	Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi	21,5	20	0	0	0	0	5	2	7	13	35,0	3	0	2	
19	Iqtisodiyot	33	26	2		2		7		7	17	34,6			2,5	
20	Jahon tarixi	16,7	16	1		1		3	1	4	11	31,3		6	1,5	
21	Musiqi ijrochiligi va madaniyat	31	20			0	2	3	1	6	14	30,0	8	1	3	
22	Agrobiznes va logistika kafedrasi	11,5	14	0	0	0	0	4	0	4	10	28,6	0	0	1,5	
23	Rus adabiyotshunosligi	18	11	0	0	0	0	3	0	3	8	27,3	0	0	4	
24	Rus tilshunosligi	34	22	0	0	0	0	5	1	6	16	27,3	1	0	5	
25	Botanika va o'simliklar fiziogiyasi	17,5	19	1	2	3		2		2	14	26,3	1	7		
26	Islom tarixi va manbashunoslik, falsafa	12,7	19	1		1		3	1	4	14	26,3				
27	Sport nazariyasi va metodikasi	36	27	1	0	1	2	4		6	20	25,9			1,5	
28	Marketing va menejment	21	25	1		1		4	1	5	19	24,0				
29	Fransuz filologiyasi	18,2	22	1		1		3	1	4	17	22,7				
30	Ingliz tilshunosligi	39	31			0		5	2	7	24	22,6		5	2	
31	Maktabgacha ta'lim	28,5	24	0	0	0	0	4	1	5	19	20,8	0	0	2	
32	Matematik analiz	21,5	24	1		1		3	1	4	19	20,8		15	1	
33	Boshlang'ich ta'lim metodikasi	35	25	1	0	1	0	4	0	4	20	20,0	2	0		
34	Ingliz adabiyotshunosligi	29,5	30	1		1		4	1	5	24	20,0				
35	Zoologiya va umumiy biologiya	21	15		1	1		2		2	12	20,0	1	3	1	
36	Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar	22	22		1	1		2	1	3	18	18,2	1		2	
37	Buxgalteriya va hisob statistika	21,5	17	0	0	0	0	3	0	3	14	17,6	6	0	1,2 5	
38	Ekologiya va geografiya	23,5	24	2		2		2		2	20	16,7				
39	Turizm va mehmonhona ho'jaligi	28	19	0	1	1	1	0	1	2	16	15,8	2	0	2,7 5	
40	Fakultetlararo chet tillar	44	43	1		1	0	4	1	5	37	14,0			2	
41	Tarjimashunoslik va lingvodidaktika	27	26	0	1	1	0	1	0	1	24	7,7				
42	Nemis filologiyasi	16,7	14	0	0	0	0	1	0	1	13	7,1	0	0		
<b>J a m i</b>		<b>956,5</b>	<b>899</b>	<b>38</b>	<b>25</b>	<b>63</b>	<b>9</b>	<b>17</b>	<b>3</b>	<b>31</b>	<b>213</b>	<b>623</b>	<b>30,7</b>	<b>34</b>	<b>58</b>	<b>36</b>

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** - “2022/2023 o‘quv yilida universitet kafedralari tomonidan amalga oshirilgan dars taqsimotlariga ko‘ra professor-o‘qituvchilarining ilmiy salohiyati tahlili to‘g‘risida” gi masala bo‘yicha kimda qanday savol, takliflar bor? Marhamat!

### Kengash a‘zolarining takliflari eshitildi.

Ushbu masala bo‘yicha universitet rektori O.X. Xamidov so‘zga chiqib, professor-o‘qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirish bo‘yicha maqsadli Yo‘l xaritalar ishlab chiqish zarurligini olish maqsadida:

- universitet o‘rtacha ko‘rsatkichidan past ko‘rsatkichli quyidagi 22 ta kafedralarda pedagog-xodimlarning ilmiy salohiyatini oshirish bo‘yicha maqsadli Yo‘l xaritalar ishlab chiqish zarurligini;

- Yo‘l xaritani ishlab chiqishda dars taqsimotlarini amalga oshirish mexanizmlari, ilmiy darajali professor-o‘qituvchilar sonini ko‘paytirish manbaalari aniq ko‘rsatilishi muhimligini;

- Yo'1 xaritalar Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor bilan kelishilgan holatda universitetning 2022-yil 29-sentabrdagi kengashiga muhokama va tasdiq uchun kiritish topshirig'ini berdi.

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

- universitet o'rtacha ko'rsatkichidan past ko'rsatkichli quyidagi 22 ta kafedralarda pedagog-xodimlarning ilmiy salohiyatini oshirish bo'yicha maqsadli Yo'1 xaritalar ishlab chiqilsin;

- Yo'1 xaritani ishlab chiqishda dars taqsimotlarini amalga oshirish mexanizmlari, ilmiy darajali professor-o'qituvchilar sonini ko'paytirish manbaalari aniq ko'rsatilsin;

- Yo'1 xaritalar Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor bilan kelishilgan holatda universitetning 2022-yil 29-sentabrdagi kengashiga muhokama va tasdiq uchun kiritilsin.

#### **IV. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar yo'nalishlari bo'yicha:**

##### **4.1. Universitet innovatsion kengashining 2022-yil uchun ish rejasini tasdiqlash to'g'risida**

**ESHITILDI: O.O. Sayfulloyev (IIITB boshlig'i)** kengash a'zolariga Universitet innovatsion kengashining 2022-yil uchun ish rejasini tasdiqlash to'g'risida ma'lumot berdi

##### **Universitet innovatsion kengashining 2022-yil uchun ISH REJASI**

T/r.	Kun tartibiga kiritiladigan masalalar	Mas'ul	Ijro muddati
1.	1. Universitet innovatsion kengashi oldida turgan asosiy vazifalar va maqsadlar to'g'risida	Innovatsion kengash raisi	2022-yil sentyabr
	2. Universitet innovatsion kengashining 2022-yil uchun kalendar ish rejasini tasdiqlash to'g'risida	Innovatsion kengash raisi	
	3. Universitet innovatsion jamg'armasining 2022-yil uchun daromadlar va xarajatlar smetasi prognoz parametrlarini tasdiqlash to'g'risida	Ilmiy-innovatsion ishlanmalarни tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i	
	4. Universitet innovatsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq Innovatsion jamg'arma mablag'lari tomonidan to'liq hamda qisman moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalarni tanlov asosida tanlab olish tartibini belgilash to'g'risida	Ilmiy-innovatsion ishlanmalarни tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i	
	5. Turli masalalar.		
2.	1. Universitet innovatsion jamg'armasi daromadlar va xarajatlar prognoz ko'rsatkichlari bajarilishining joriy holati to'g'risida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor	2022-yil oktyabr
	2. Universitet talabalari orasida innovatsion g'oya va ishlanmalar tanlovini o'tkazish tartibini belgilash to'g'risida	Ilmiy-innovatsion ishlanmalarни tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i	
	3. Turli masalalar.		
3.	1. Universitet innovatsion jamg'armasi daromadlar	Ilmiy ishlar va	2022-yil

	va xarajatlar prognoz ko'rsatkichlari bajarilishining joriy holati to'g'risida	innovatsiyalar bo'yicha prorektor	noyabr
	2. Universitet talabalari o'ttasida innovatsion g'oya va ishlanmalar tanlovi natijalarini tasdiqlash to'g'risida	Innovatsion kengash a'zolari	
	3. Turli masalalar.		
4.	1. Universitet innovatsion jamg'armasi daromadlar va xarajatlar prognoz ko'rsatkichlari bajarilishining joriy holati to'g'risida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor	2022-yil dekabr
	2. Universitet innovatsion jamg'armasining keyingi kalendar yili uchun daromadlar va xarajatlar smetasi prognoz parametrlarini tasdiqlash	Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i	
	3. Turli masalalar.		

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** - “Universitet innovatsion kengashining 2022-yil uchun ish rejasini tasdiqlash to'g'risida”gi masala bo'yicha kimda qanday savol, takliflar bor? Marhamat!

Kengash a'zolarining takliflari eshitildi.

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Universitet rektori, kengash raisi O.X. Xamidovning universitet Innovatsion kengashining 2022-yil uchun kalendar ish rejasini tasdiqlash to'g'risidagi ma'lumoti axborot uchun qa'bul qilinsin.
2. Universitet innovatsion kengashining 2022-yil uchun kalendar ish rejasini tasdiqlansin.
3. Universitet innovatsion kengashi 2022-yil uchun kalendar ish rejasida belgilangan muddatlarda yig'ilishi inobatga olinsin.
4. Universitet innovatsion kengashi universitet innovatsion faoliyatiga oid masalalar muhokamasi uchun navbatdan tashqari yig'ilishi mumkinligi qayd etilsin.
5. Ushbu qarorning ijro nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor zimmasiga yuklatilsin.

#### **4.2. Universitet innovatsion jamg'armasining 2022-yil uchun daromadlar va xarajatlar smetasi prognoz parametrlarini tasdiqlash to'g'risida**

**ESHITILDI: O.O. Sayfulloyev (IIITB boshlig'i)** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3698-soni qarori hamda universitet innovatsion jamg'arma to'grisidagi Nizomiga aosan **Innovatsion jamg'arma mablag'larini shaklantirishning asosiy manbalari quyidagilar hisoblanadi:**

- ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirishdan olinadigan daromadlar;
- universitetning ish haqi to'lovlarini, stipendiyalar va boshqa joriy xarajatlar qoplanganidan keyin to'lov-kontrakt mablag'larining 5 foizidan kam bo'limgan miqdordagi ajratmalar;
- xalqaro moliya tashkilotlari va universitetlarining grantlari va kreditlari;
- mahalliy, shu jumladan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning hayriya mablag'lari;

- qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa tushumlar.

**Innovatsion jamg'arma mablag'laridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari:**

- Ilmiy-tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni rag'batlantirish;
- ilmiy-laboratoriya uskunalarini, sarflash materiallari va butlovchi buyumlar sotib olish;
- ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini shakllantirish va yangilash, ilmiy xodimlarni moddiy rag'batlantirish;
- ilmiy-tadqiqot, innovatsion hamda kichik startap loyihalarni to'liq yoki qisman moliyalashtirish;
- universitetda professor-o'qituvchilar hamda talabalar o'rtasida tashkil etiladigan innovatsion g'oya va ishlanmalar, startap loyihalari tanlovlari g'oliblarini moddiy rag'batlantirish;
- ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini ishlab chiqish hamda tijoratlashtirishda ishtirok etgan ilmiy jamoa yoki muallifga tijoratlashtirishdan kelib tushayotgan mablag'larning ma'lum qismini bir martalik mukofot tarzida ish haqi sifatida ajratish;
- universiyet ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi faoliyatini moliyalashtirish;
- innovatsiya faoliyat bilan bog'liq bo'lgan qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa xarajatlarni amalga oshirish.

**Universitet innovatsion jamg'armasining 2022-yil uchun daromadlar qismi prognoz parametrlari**

ming.so'mda

<b>Innovatsion jamg'armaning yil boshidagi qoldig'i</b>	<b>356 384,0</b>
<b>Universitet innovatsion jamg'armasining 2022-yil uchun daromadlar qismi prognoz parametrlari</b>	
Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirishdan tushum	800 000,0
<b>Jami</b>	<b>1 156 384,0</b>

**Universitet innovatsion jamg'armasining 2022-yil uchun xarajatlar qismi prognoz parametrlari**

ming.so'mda

<b>Universitet innovatsion jamg'armasining 2022-yil uchun xarajatlar qismi prognoz parametrlari</b>	
Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirishda ishtirok etgan muallif yoki jamoaga mukofot tarzida ish haqi to'lash xarajatlari	665 000,0
Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirishda ishtirok etgan muallif yoki jamoaga mukofot tarzida ajratiladigan ish haqidan ijtimoiy to'lov ajratmalari	79 800,0
Universitet ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi xodimlarining ish haqi bilan bog'liq xarajatlar	41 131,0
Universitet ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi xodimlarining haqidan ijtimoiy to'lov ajratmalari	4 936,0
Universitetda mavjud laboratoriylar uchun jihozlar hamda reagentlar xarid qilish xarajatlari	30 000,0
Universitetda ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan professor-o'qituvchilarni moddiy rag'batlantirish xarajatlari	10 000,0
Ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalarni moliyalashtirish xarajatlari	250 000,0

Universitet talabalari o'rtasida tashkil etiladigan innovatsion g'oya, ishlanmalar, startap loyihalari tanlovlari g'oliblarini moddiy rag'batlashtirish xarajatlari	12 000,0
Profesor-o'qituvchilarning qisqa muddatli (1 oygacha) ilmiy stajirovkalarini tashkil etish xarajatlari	10 000,0
Innovatsion faoliyat bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar	5 000,0
<b>Jami xarajat</b>	<b>1 107 867,0</b>
<b>Yil oxiridagi qoldiq</b>	<b>48 517,0</b>

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** - “Universitet innovatsion jamg'armasining 2022-yil uchun daromadlar va xarajatlar smetasi prognoz parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi masala bo‘yicha kimda qanday savol, takliflar bor? Marhamat!

Kengash a’zolarining takliflari eshitildi.

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

**1.** Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi boshlig‘i O.O. Sayfulloyevning Universitet innovatsion jamg'armasining 2022-yil uchun daromadlar va xarajatlar smetasi prognoz parametrlari to‘g‘risidagi ma’lumoti axborot uchun qa’bul qilinsin.

**2.** Universitet innovatsion jamg'armasining 2022-yil uchun daromadlar va xarajatlar smetasi prognoz parametrlari tasdiqlansin.

**3.** Fakultet dekanlari hamda kafedra mudirlariga tomonidan Universitet innovatsion jamg'armasining 2022-yil uchun daromadlar va xarajatlar smetasi prognoz parametrlari tegishli bandlari bo‘yicha takliflarni tayyorlash hamda innovatsion kengash kun tartibiga kiritish vazifasi yuklatilsin.

**4.** Ushbu qarorning ijro nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor zimmasiga yuklatilsin.

#### **4.3. Universitet innovatsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq innovatsion jamg‘arma mablag‘lari to‘liq hamda qisman moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalarni tanlov asosida tanlab olish tartibini belgilash to‘g‘risida**

**ESHITILDI: O.O. Sayfulloyev** (*IIITB boshlig‘i*) kengash a’zolariga Universitet innovatsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq innovatsion jamg‘arma mablag‘lari to‘liq hamda qisman moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalarni tanlov asosida tanlab olish tartibini belgilash to‘g‘risida ma’lumot berdi.

### **ILMIY-TADQIQOT, INNOVATSION VA STARTAP LOYIHALARNI TASDIQLASH, MOLIYALASHTIRISH VA AMALGA OSHIRISH TARTIBI TO‘G‘RISIDA NIZOM**

#### **I. UMUMIY QOIDALAR**

**1.1.** Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-sonli hamda “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-sonli qarorlariga muvofiq Buxoro davlat universitetida (keyingi o‘rinlarda – Universitet)

ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalar tanlovlari e'lon qilish, tanlab olish, ularni amalga oshirish hamda natijadorligini baholash tartibini belgilaydi.

**1.2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:**

1.2.1. Innovatsion kengash - universitetning innovatsion, ilmiy va ilmiy-texnik siyosatini shakllantirish va amaliyatga tatbiq etish hamda uzlucksiz ta'lim tizimida ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash sohasidagi ekspert-kengashuv organi, ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalarni baholashga, ekspertiza qilishga va natijalarini amalga oshirish ishlarini monitoring qilishga ko'maklashuvchi, o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi, yetakchi olimlar, ekspertlar, mutaxassislar hamda davlat organlarining yuqori malakali mutaxassislaridan iborat universitet huzuridagi ilmiy-texnik jamaoa.

1.2.2. Ekspert komissiyasi - ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalarni (keyingi o'rinnarda loyiha) texnik hamda moliyaviy-iqtisodiy ekspertizasini amalga oshiruvchi universitet rektori buyrug'i bilan tasdiqlangan mas'ul komissiya.

1.2.3. Talabnama beruvchi (talabgor) - loyiha rahbari va/yoki loyihani ishlab chiqqan universitet professor-o'qituvchilari, yosh olimlar va talabalar.

**1.3. Ushbu Nizomga muvofiq tasdiqlangan loyihalar ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida universitet innovatsion jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.**

**1.4. Loyihalar tanlovini e'lon qilish muddatlari hamda ekspertlar komissiyasi tarkibi universitet rektori buyrug'iga asosan tasdiqlanadi.**

**1.5. Loyihalar tanlovini e'lon qilish universitet Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.**

**1.6. Mazkur Nizom qoidalari homiy tashkilotlar mablag'lari hisobidan to'liq moliyalashtiriladigan, shuningdek, universitet kengashi yoki universitetning kuzatuv kengashi tomonidan tanlov e'lon qilmagan holda to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish to'g'risida qaror qabul qilingan loyihalarga nisbatan tatbiq etilmaydi.**

## **II . LOYIHALAR TANLOVINI E'RON QILISH HAMDA TASDIQLASH TARTIBI**

**2.1. Universitet professor-o'qituvchilari, doktorant va tayanch doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari, xodimlari hamda talabalarning loyihalari tanlovi shartlari, yo'nalishlari hamda loyihalarni topshirish muddatlari to'g'risidagi ma'lumotlar universitet rasmiy saytida va zarur hollarda boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.**

**2.2. Loyihalar tanlovida qatnashmoqchi bo'lgan talabgorlar mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq ariza bilan murojaat qiladi.**

**2.3. Talabgorlar loyihalar to'g'risidagi ma'lumotlarni mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq ekspertlar komissiyasiga taqdim qiladi.**

**2.4. Loyiha hujjatlarini qabul qilish ekspert komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Loyihalar bo'yicha hujjatlar talabnama beruvchi tomonidan e'lon talablariga ko'ra tayyorlanadi va taqdim etiladi.**

**2.5. Loyihalar ekspertizasi quyidagicha ikki bosqichda amalga oshiriladi:**

Birinchi bosqich - taqdim etilgan loyihalarning tanlov shartlariga mosligi yuzasidan o'tkaziladigan texnik va moliyaviy-iqtisodiy ekspertiza;

Ikkinci bosqich - birinchi bosqichdan muvaffaqiyatli o'tgan loyihalarni innovatsion kengash tomonidan ekspertizadan o'tkazish, innovatsion kengash yig'ilishida ko'rib chiqish, baholash va moliyalashtirish uchun universitet innovatsion kengashiga tavsiya qilish.

2.5.1. Tegishli talablarga rioya etmagan holda taqdim etilgan loyihalar innovatsion kengash muhokamasiga kiritilmaydi.

2.5.2. Tanlovga taqdim etilgan loyihalar mohiyati hamda fan yo'nalishlaridan kelib chiqib, zarur hollarda ekspert komissiyasi tarkibiga mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

**2.6. Loyihalarning texnik va moliyaviy-iqtisodiy ekspertizasi ekspert komissiyasi tomonidan 10 (o'n) ish kuni ichida o'tkaziladi hamda ekspert komissiyasi qarorlari va xulosalari universitet innovatsion kengashiga taqdim etiladi.**

**2.7.** Loyihalar ekspert komissiyasi a'zolari tomonidan mazkur Nizomning 3-ilovasida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholanadi.

**2.8.** Ekspert komissiyasining baholash natijalariga ko'ra, 60 va undan yuqori ball to'plagan loyihalar innovatsion kengash muhokamasiga taqdim etiladi. Bir mavzu bo'yicha bir nechta loyiha 60 va undan yuqori ball to'plagan taqdirda esa eng yuqori ballni to'plagan loyiha innovatsion kengash muhokamasiga taqdim etiladi. Bunda, to'plangan ballar teng bo'lgan taqdirda, ekspert komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

**2.9.** Ekspert komissiyasi tomonidan berilgan xulosa navbatdagi innovatsion kengash yig'ilishida o'zaro ochiq muhokama shaklida ko'rib chiqiladi.

**2.10.** Talabnama beruvchi (talabgor) innovatsion kengash yig'ilishida o'z loyihasi taqdimoti bilan ishtirok etadi.

**2.11.** Innovatsion kengash hamda ekspert komissiyasi a'zolaridan biri yoki bir nechtasi muhokama qilinayotgan loyiha rahbari yoki a'zosi bo'lgan taqdirda, u(lar)ning muhokamada ishtirok etish(lar)iga yo'l qo'yilmaydi.

**2.12.** Tanlov natijalariga ko'ra, innovatsion kengash quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi: tanlov g'olib deb e'lon qilingan loyiha(lar)ni moliyalashtirishga tavsiya etish to'g'risida; loyiha(lar)ni moliyalashtirishni rad etish to'g'risida.

**2.13.** Innovatsion kengash qarorlari va xulosalari yig'ilish bayoni shaklida rasmiylashtiriladi hamda innovatsion kengash raisi hamda kotibi tomonidan imzolanadi.

**2.14.** Innovatsion kengash a'zolaridan biri yoki bir nechtasi baholash jarayonida ko'pchilikning fikriga qo'shilmagan taqdirda, o'z(lar)ining alohida fikrini bildirishga haqli hamda u(lar)ning alohida fikri yig'ilish bayonnomasiga kiritilishi shart.

**2.15.** Innovatsion kengash tomonidan moliyalashtirishga etilgan loyiha(lar)ni moliyalashtirish to'g'risidagi qaror universitet ilmiy kengashi muhokamasiga kiritiladi.

**2.16.** Universitet ilmiy kengashi tavsiya etilgan loyihani moliyalashtirish yoki moliyalashtirishni rad etish to'g'risidagi qarorlardan birini qabul qiladi. Universitet ilmiy kengashi loyihalarning to'g'ri va xolis ekspertizadan o'tkazilganligini tekshirish maqsadida qo'shimcha ekspertiza tayinlash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Qo'shimcha ekspertiza o'tkazish tartibi universitet ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

**2.17.** Universitet ilmiy kengashining tanlov g'olib deb e'lon qilingan loyihani moliyalashtirish to'g'risidagi qarorida mazkur loyihani moliyalashtirish usuli (to'liq yoki qisman qaytarish sharti bilan mablag' ajratish yoki ustav fondiga ulush kiritish), shuningdek, loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa shartlar ham belgilanishi mumkin.

### **III. LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH TARTIBI**

**3.1.** Loyihalarni moliyalashtirish maqsadida ajratiladigan mablag'lar innovatsion kengash qaroriga asosan universitet innovatsion jamg'armasining kalendar yil uchun tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar smetasida o'z aksini topadi.

**3.2.** Zarur hollarda innovatsion kengash qaroriga asosan loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar summasi oshishi yoki kamayishi mumkin.

**3.3.** Loyihalarni moliyalashtirish universitet ilmiy kengashi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

**3.4.** Tanlov natijalariga ko'ra moliyalashtirilgan loyihalar ular yakunlangandan so'ng tijoratlashtirilishi shart. Boshqacha tartib nazarda tutiladigan bo'lsa, ushbu tartib innovatsion kengash qaroriga o'z aksini topishi lozim.

### **IV. LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI**

**4.1.** Universitet kengashi tomonidan moliyalashtirish to'g'risida qaror qabul qilingan loyihani amalga oshirish tartibi universitet hamda loyiha rahbari o'rtasida tuziladigan shartnomaga asosida tartibga solinadi. Bunda, universitet innovatsion kengashi hamda ilmiy kengashi qarori bilan belgilangan loyihani moliyalashtirish va amalga oshirish bilan bog'liq shartlar shartnomada

majburiy tarzda belgilanishi lozim. Loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha boshqacha tartib nazarda tutiladigan bo‘lsa, ushbu tartib innovatsion kengash qaroriga o‘z aksini topishi lozim.

**4.2.** Shartnomalar tuzish masalasida mazkur loyihani moliyalashtirish to‘g‘risida ilmiy kengash qarori chiqqan kundan boshlab ikki oygacha bo‘lgan muddatda kelishuvga erishilmagan taqdirda, tanlov shartlari bajarilmagan deb hisoblanadi va bu holat kelgusida mazkur loyihani moliyalashtirishni rad etishga asos bo‘ladi.

**4.3.** Loyihaning samarali, sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlashga oid chora-tadbirlar loyiha rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

**4.4.** Loyiha rahbari quyidagilar uchun javobgardir:

loyiha hujjatlarining mazkur Nizom hamda O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilishi;

taqdim etiladigan hujjatlar, ma’lumotlar va axborotlarning o‘z vaqtida, sifatli va ishonchli bo‘lishi;

loyihani o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi;

axborot xavfsizligini ta’minlash;

shartnomalar shartlari, mazkur Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga qat’iy rioxat etish.

## **V. LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONINI MONITORING QILISH TARTIBI HAMDA ULARNING NATIJADORLIGINI BAHOLASH**

**5.1.** Innovatsion jam‘arma mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan loyihalarni amalga oshirish davomida loyiha rahbari tomonidan har chorakda oraliq hisobotlar hamda loyihani amalga oshirish muddati yakunlangan kundan boshlab o‘n besh kun ichida yakuniy hisobot taqdim etiladi.

**5.2.** Oraliq va yakuniy hisobotlar shartnomada belgilangan majburiyatlarning bajarilishi holatini hamda loyiha doirasida erishilgan natijalarni o‘z ichiga olishi lozim.

**5.3.** Universitet innovatsion kengashi yakuniy hisobotni loyiha rahbari ishtirokida ko‘rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirilgan deb hisoblab, loyiha natijalarini qabul qilish to‘g‘risida;

loyihani to‘liq yakunlash uchun qo‘sishimcha muddat belgilash to‘g‘risida.

**5.4.** Loyihani to‘liq yakunlash uchun belgilangan qo‘sishimcha muddat yakunlangan kundan boshlab o‘n besh kun ichida qayta yakuniy hisobot taqdim etiladi.

**5.5.** Universitet innovatsion kengashi qayta taqdim etilgan yakuniy hisobotni ko‘rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirilgan deb hisoblab, loyiha natijalarini qabul qilish to‘g‘risida;

loyihadan ko‘zlangan natijalarga to‘liq yoki qisman erishilmagan deb hisoblab, loyiha natijalarini qabul qilmaslik to‘g‘risida.

Loyiha natijalari universitet innovatsion kengashi tomonidan qabul qilinmagan taqdirda, shartnomada va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda universitet manfaatlariga etkazilgan zararni undirish choralari ko‘riladi.

## **VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR**

**6.1.** Mazkur nizomning ilovalari nizomning ajralmas qismi hisoblanadi.

**6.2.** Loyihalarga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishda talabnomalar beruvchi (talabgor) javobgar hisoblanadi.

**6.3.** Ushbu nizomga o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritish universitet innovatsion kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

**6.4.** Nizom universitet kengashining 2022-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kunidagi qarori bilan tasdiqlangan.

***“Ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalarini tasdiqlash, moliyalashtirish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga 1-ilova***

**Ilmiy-tadqiqot, innovatson, startap loyihalarini tanlab olish va moliyalashtirish tanlovida ishtirok etish uchun**

**ARIZA**

Men, (*loyiha rahbari F.I.O.*), “*loyiha nomi*” mavzusida tayyorlangan loyiha asosida loyihalar tanlovida doirasida ishtirok etish jarayonida “Ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalarini tasdiqlash, moliyalashtirish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda belgilangan tanlov shartlarini o‘qib chiqdim va qabul qildim.

Ushbu arizada ko‘rsatilgan barcha ma’lumotlarni taqdim etilgan vaqtida to‘g‘ri va dolzarb ekanligini hamda loyiha bundan avval moliyalashtirilmaganligini tasdiqlayman. Shuningdek, universitet innovatsion hamda ilmiy kengashining tanlov g‘oliblarini aniqlash to‘g‘risidagi qarorining yakuniyligi va qaror yuzasidan e’tirozim yo‘qligini ma’lum qilaman.

Sana \_\_\_\_\_

Imzo \_\_\_\_\_ (*F.I.O*)

***“Ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalarini tasdiqlash, moliyalashtirish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga 2-ilova***

**LOYIHA PASSPORTI**

1.	Loyihaning nomi: (o‘zbek, rus va ingliz tillarida)	
2.	Loyihaning amalga oshirish faoliyati turi: (xizmatlar, ishlab chiqarish va boshqalar)	
3.	Loyiha rahbari va ijrochilar to‘g‘risiga ma’lumot:	
4.	Loyiha haqida qisqacha ma’lumot:	
<b>Texnologiya/xizmat/mahsulotning qo’llanilish sohasi:</b> (berilganlardan bir yoki bir nechta variant tanlang) Qishloq xo‘jaligi; Tibbiyot va biotexnologiya; Farmasivtika; Energetika IT-texnologiya; Geologiya va geofizika; Fizika va kimyo; To‘qimachilik va yengil sanoat; Oziq-ovqat sanoati; Ijtimoiy texnologiyalar (atrof muhit, sport va ta’lim yo‘nalishlari); Turizm; Boshqalar.		

<b>Loyihaning asosiy mazmuni:</b> (bir nech jumlalar orqali loyihani mazmunini izohlang)	
<b>Loyiha joriy etiladigan hudud va tarmoq nomi:</b> (joriy etiladigan hudud va tarmoq nomi ko'rsatishi lozim)	
<b>Loyiha hududning va/yoki tarmoqning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishg ta'siri;</b> (hududdagi va tarmoqdagi muammolarni hal qilishda loyihaning o'rni va roli ko'rsatilishi va boshqalar)	
<b>Iste'molchilar to'g'risida ma'lumot</b>	
<b>Qo'llanilayotgan texnologiyalar, ularning yangilik darajasi va intellektual mulkni himoya qilish borasida ko'rilgan choralar haqida ma'lumot</b>	
<b>Loyihani amalga oshirish bosqichlari</b>	
<b>Loyihaning amalga oshirish muddati:</b> (loyihaning boshlanish va tugashi oy va yillarda)	
<b>Moliyalashtirish hajmi:</b> (ming so'mda)	
<b>Birgalikda moliyalashtirish hajmi – Cost sharing, agar mavjud bo'lsa:</b> (birgalikda moliyalashtirishga rozilik bildirgan tashkilot nomi va rozilik xati nusxasi ilova qilinadi)	
<b>Sertifikatsiyadan o'tganligi to'g'risidagi hujjatlar, agar mavjud bo'lsa:</b> (muvofiglik sertifikati, gigienik, yong'in xavfsizligi va boshqalar)	
<b>Kutilayotgan natija:</b> Loyiha amalga oshirishdan olinadigan natija, shu jumladan ishlanma yoki texnologiya nomi	

**5. Loyiha ijrochilar haqida ma'lumot** (*to'liq holda ism-sharifi; tug'ilgan sanasi; aloqa uchun ma'lumotlar; mutaxassisligi va loyihadagi o'rni; loyihani amalga oshirish uchun loyiha ishtirokchilarida kerakli bilim va ko'nikmalarni mavjudligini tavsif etish; ilmiy darajasi va ilmiy unvonlari agar mavjud bo'lsa, shu jumladan 40 yoshgacha bo'lgan yosh olimlar*).

**6. Loyihani tijoratlashtirishgacha tayyorlashda amalga oshirish uchun talab etiladigan mablag'lar miqdori** (ming. so'mda)

#### Xarajatlar smetasi

(loyiha nomi)

Xarajat turlari	Summa (so'mda)	Umumiyligida xarajatlardagi ulushi (foizda)
Ish haqi fondi		
Ijtimoiy to'lov		
Asbob-uskunalar, inventar va texnikalar sotib olish xarajatlari		
Xom-ashyo va materiallarni sotib olish bilan bog'liq		

xarajatlar		
Sertifikatlashtirish va standartlashtirish to‘g‘risidagi hujjatlar, klinik sinovlardan o‘tkazish hamda texnik-iqtisodiy asos ishlab chiqish bilan bog‘liq xarajatlar		
Sanoat nusxalari, tajriba namunalari, konstruktorlik hujjatlari va reglamentlar ishlab chiqish bilan bog‘liq xarajatlar		
Shartnoma asosida xodimlar jalb qilish bilan bog‘liq xarajatlar <i>(Qanday ish faoliyatlariga jalb qilinishi ko‘rsatilishi zarur)</i>		
Boshqa xarajatlar		
<b>Jami xarajatlar:</b>		

*Izoh: xarajatlar smetasiga loyihaning xarajatlarini asoslovchi hisob-kitoblar (jadvallar) ilova qilinishi shart. Agar birgalikda moliyalashtirish ko‘zda tutilgan bo’lsa, birgalikda moliyalashtirish shartlari tarkibi alohida jadvalda ko‘rsatilishi lozim.*

#### **Mehnatga haq to‘lash xarajatlari**

*ming so‘mda*

<b>Nº</b>	<b>Lavozimi</b>	<b>Stavkalar soni</b>	<b>Hisoblanadigan oylik ish haqi</b>	<b>Ish davomiyligi (oylarda)</b>	<b>Jami hisoblangan ish haqi</b>	<b>Ijtimoiy soliq</b>	<b>Jami</b>
<b>1.</b>							
<b>2.</b>							
<b>3.</b>							
...							
<b>Jami:</b>							

#### **Asbob-uskunalar, inventor va texnikalar sotib olish xarajatlari**

*ming so‘m*

<b>Nº</b>	<b>Nomi</b>	<b>O‘lchov birligi</b>	<b>Soni</b>	<b>Summasi</b>	<b>Jami miqdori</b>
<b>1.</b>					
<b>2.</b>					
<b>3.</b>					
...					
<b>Jami</b>					

*Izoh:*

1. Inventar, texnika va jihozlarning texnik tavsifi va anima maqsadda ishlatilishi zarurati asoslantirishi kerak
2. Xarid qilinadigan mahsulot, ish va xizmatlar narxlarimi belgilashda 2 ta tovar yetkazib beruvchilarining tijorat takliflari ilova qilinishi lozim.

#### **Xom ashyo va materiallarni sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar**

*ming so‘m*

<b>Nº</b>	<b>Nomi</b>	<b>O‘lchov birligi</b>	<b>Soni</b>	<b>Summasi</b>	<b>Jami miqdori</b>
<b>1.</b>					
<b>2.</b>					
<b>3.</b>					
...					

<b>Jami</b>			
-------------	--	--	--

*Izoh: Xarid qilinadigan xom ashyo va materiallarni narxlarini belgilashda kamida 2 ta tovar yetkazib beruvchilarning tijorat takliflari ilova qilinishi lozim.*

**Sertifikatlashtirish va standartlashtirish to‘g‘risidagi hujjatlar, klinik sinovlardan o‘tkazish hamda texnik iqtisodiy asos ishlab chiqish bilan bog‘liq xarajatlar**

*ming so‘m*

<b>№</b>	<b>Nomi</b>	<b>O‘lchov birligi</b>	<b>Soni</b>	<b>Summasi</b>	<b>Jami miqdori</b>
1.					
2.					
3.					
...					
<b>Jami</b>					

**Sanoat nusxalari, tajriba namunalari, konstruktorlik hujjatlari va reglamentlar ishlab chiqish bilan bog‘liq xarajatlar**

*ming so‘m*

<b>№</b>	<b>Nomi</b>	<b>O‘lchov birligi</b>	<b>Soni</b>	<b>Summasi</b>	<b>Jami miqdori</b>
1.					
2.					
3.					
...					
<b>Jami</b>					

**Shartnoma asosida xodimlar jalb qilish bilan bog‘liq xarajatlar**

*ming so‘m*

<b>№</b>	<b>Nomi</b>	<b>O‘lchov birligi</b>	<b>Soni</b>	<b>Summasi</b>	<b>Jami miqdori</b>
1.					
2.					
3.					
...					
<b>Jami</b>					

**Boshqa xarajatlar**

*ming so‘m*

<b>№</b>	<b>Nomi</b>	<b>O‘lchov birligi</b>	<b>Soni</b>	<b>Summasi</b>	<b>Jami miqdori</b>
1.					
2.					
3.					
...					
<b>Jami</b>					

*Izoh: boshqa xarajatlar summasi va tarkibi aniq asoslantirilishi lozim*

## 7. Loyihaning kalendar grafigi

1-yil davomidagi faoliyat			Yan	Fev	Mar	Apr	May	Iyun	Iyul	Avg	Sen	Okt	Noy	Dek
Bosqich ning raqami	Boshlanis hi (oy)	Davomi yligi (oylar)												
1	1	3												
Bosqichning nomi														
Bosqichning nomi														
Bosqichning nomi														

*Ilmiy -tadqiqot, innovatsion va startap loyihalarni tasdiqlash, moliyalashtirish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga 3-ilova*

### **Ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalarni baholash MEZONLARI**

#### **1. Loyihaning innovatsionligi – 25 ballgacha:**

avval qo‘llanilmagan texnologiyalar va (yoki) jarayonni tashkil etish prinsiplariga asoslangan yoxud avval ishlab chiqarilmagan yangi mahsulotni ishlab chiqarish yoki yangi xizmatni ko‘rsatishni nazarda tutadi – *16-25 ball*;

avval qo‘llanilgan texnologiyalar va (yoki) jarayonni tashkil etish prinsiplariga asoslangan yoxud avval ishlab chiqarilgan mahsulotni ishlab chiqarish yoki xizmatni ko‘rsatishni nazarda tutsa-da, o‘z analoglaridan yuqori ustunlikka ega – *6-15 ball*;

avval qo‘llanilgan texnologiyalar va (yoki) jarayonni tashkil etish prinsiplariga asoslangan yoxud avval ishlab chiqarilgan mahsulotni ishlab chiqarish yoki xizmatni ko‘rsatishni nazarda tutadi, shuningdek,

o‘z analoglaridan farq qilmaydi – *0-5 ball*.

#### **2. Loyihaning investitsiyaviy jozibadorligi – 25 ballgacha:**

qo‘sishimcha daromad keltiradigan hamda uni amalga oshirishda investitsiyalar xavfini kamaytiradigan qulay investitsion va innovatsion sharoitlar va afzalliklarga ega – *16-25 ball*;

qo‘sishimcha daromad keltirish imkoniyatiga hamda uni amalga oshirishda investitsiyalar xavfini kamaytiradigan investitsion va innovatsion sharoitlar va afzalliklarga qisman ega – *6-15 ball*;

qo‘sishimcha daromad keltiradigan hamda uni amalga oshirishda investitsiyalar xavfini kamaytiradigan investitsion va innovatsion sharoitlar va afzalliklarga ega emas – *0-5 ball*.

#### **3. Intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqning muhofazalanganligi – 15 ballgacha:**

muhofaza hujjalari va (yoki) ilmiy-texnik hujjalarning kompleksi va (yoki) mahsulotning (texnologiyaning) texnik reglamenti, sinov o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi dalolatnomalar yoki mahsulotning tajriba nusxasi to‘liq mavjud – *10-15 ball*;

muhofaza hujjalari va (yoki) ilmiy-texnik hujjalarning kompleksi va (yoki) mahsulotning (texnologiyaning) texnik reglamenti, sinov o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi dalolatnomalar yoki mahsulotning tajriba nusxasi qisman mavjud – *4-9 ball*;

muhofaza hujjalari va (yoki) ilmiy-texnik hujjalarning kompleksi va (yoki) mahsulotning (texnologiyaning) texnik reglamenti, sinov o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi dalolatnomalar yoki mahsulotning tajriba nusxasi mavjud emas – *0-3 ball*.

#### **4. Loyihaning resurs bilan ta’minlanganligi – 20 ballgacha:**

loyihani amalga oshirishning texnik imkoniyatlari, shu jumladan moddiy-texnik baza va mutaxassislar mavjud – *14-20 ball*;

loyihani amalga oshirishning texnik imkoniyatlari, shu jumladan moddiy-texnik baza va mutaxassislar qisman mavjud – *6-13 ball*;

loyihani amalga oshirishning texnik imkoniyatlari, shu jumladan moddiy-texnik baza va mutaxassislar mavjud emas – *0-5 ball*.

### **5. Mablag‘larning maqsadli sarflanishi asoslantirilganligi – 15 ballgacha:**

loyiha uchun ajratiladigan mablag‘larning maqsadli sarflanishi asoslantirilgan, moliyaviy xarajatlar to‘g‘ri taqsimlangan – *10-15 ball*;

loyiha uchun ajratiladigan mablag‘larning maqsadli sarflanishi qisman asoslantirilgan, moliyaviy xarajatlar taqsimotida kamchiliklar mavjud – *4-9 ball*;

loyiha uchun ajratiladigan mablag‘larning maqsadli sarflanishi asoslantirilmagan, moliyaviy xarajatlar noto‘g‘ri taqsimlangan – *0-3 ball*.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** - “Universitet innovatsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq innovatsion jamg‘arma mablag‘lari tomonidan to‘liq hamda qisman moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalarni tanlov asosida tanlab olish tartibini belgilash to‘g‘risida”gi masala bo‘yicha kimda qanday savol, takliflar bor? Marhamat!

Kengash a’zolarining takliflari eshitildi.

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi**:

**1.** Ilmiy-innovatsion ishlamalarni tijoratlashtirish bo‘limi boshlig‘i O.O. Sayfulloyevning Universitet innovatsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq Innovatsion jamg‘arma mablag‘lari hisobidan to‘liq hamda qisman moliyalashtiriladigan Ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalarni tasdiqlash, moliyalashtirish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi ma’lumoti axborot uchun qa’bul qilinsin.

**2.** “Ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalarni tasdiqlash, moliyalashtirish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlansin.

**3.** Ushbu Nizomga asosan universitet professor-o‘qituvchilari hamda talabalari orasida ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalar tanlovi e’lon qilinsin hamda tanlov doirasida loyihalarni qabul qilish muddati 2022 yil 31-dekabr kuniga qadar etib belgilansin.

**4.** Universitet professor-o‘qituvchilari hamda talabalari orasida ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalar tanlovi e’lon qilish hamda tanlovga topshiriladigan loyihalarni texnik va moliyaviy-iqtisodiy ekspertizasini amalga oshirish uchun ekspert komissiya tarkibini tasdiqlash bo‘yicha universitet rektori buyrug‘i loyihasi tayyorlansin. (mas’ul: IIITB boshlig‘i O.O. Sayfulloyev)

**5.** Ilmiy-tadqiqot, innovatsion va startap loyihalar tanlovining shartlari va muddatlari bo‘yicha tegishli ma’lumotlar universitet rasmiy sayti hamda OAVlarda e’lon qilinsin (mas’ul: IIITB boshlig‘i O.O. Sayfulloyev).

**6.** Ushbu qarorning ijro nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor zimmasiga yuklatilsin.

---

#### **4.4. Universitet huzurida qishloq xo‘jaligida biotexnologiyalarni qo‘llash sohasida “Bukhsu Scientific Biotechnology” unitar korxonasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida**

**ESHITILDI: O.O. Sayfulloyev** (*IIITB boshlig‘i*) kengash a’zolariga Bugungi kunda mamlakatimizda ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyatni amalga oshirish, ilmiy-texnikaviy va innovatsion rivojlanishni ta’minlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishda mavjud moliyaviy va moddiy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib

borilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyotning jadal rivojlanishi mamlakat ilmiy-tadqiqot va oliv ta’lim muassasalarining ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyatni tijoratlashtirishda mavjud salohiyatdan yanada to‘liq foydalanish zaruratini taqozo etmoqda. Bunda innovatsion faoliyatning istiqbolli yo’nalishlarida tashkil etiladigan ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan akademik spin-off tashkilotlarning o‘rni beqiyos hisoblanadi.

2022-yilning 6-iyul kuniga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-307-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning 7 va 7b-ilovalarida keltirilgan vazifalar ijrosi yuzasidan Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi tomonidan Agronomiya va biotexnologiya fakulteti Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasi huzurida qishloq xo‘jaligida biotexnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha akademik spin-off korxonasi tashkil etish masalasi o‘rganildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar va fermer xo‘jaliklari tomonidan yetarlicha talab hamda fakultetda qishloq xo‘jaligida biotexnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tijoratlashtirishga tayyor loyihibar mavjudligini inobatga oлган holda Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasi huzurida “BukhSU Scientific Biotechnology” unitar korxonasini tashkil etish muhim sanaladi. Universitetda ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish maqsadida akademik spin-off korxonalarini tashkil etish orqali fan-ta’lim-ishlab chiqarishning samarali integratsiyasi amalga oshirish, moddiy-texnik bazani boyitish, innovatsion g‘oyalarni iqtisodiyotga real tadbiq etish, malakaviy amaliyotlarni samarali tashkil etish, professor-o‘qituvchilarining moddiy manfaatdorligi oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish, ta’lim sifatini oshirish, universitet brendini shakllantirish kabi maqsadlarga erishish mumkin.

2022-yilning 6-iyul kunida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-307-sonli qarori 7-7b-ilovalarida ushbu loyiha hamda spin-off korxonasi tashkil etilishi qayd etilgan. Xususan, PQ-307-sonli qarorning 7-ilovasida “Mikroskopik suvo‘tlarni baliqchilikda qo‘llash texnologiyasini joriy qilish” loyihasi hamga 7b-ilovasida “Qishloq xo‘jaligida innovatsion biotexnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha “Akademik” MChJ innovatsion korxonasini tashkil etish” vazifalari keltirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 70-moddasida unitar korxonaning firma nomida uning mol-mulkining egasi (ta’sischisi) ko‘rsatilgan bo‘lishi kerakligi qayd etilganligi sababli tashkilot nomi sifatida “BukhSU Scientific Biotechnology” tanlandi.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** - “Universitet huzurida qishloq xo‘jaligida biotexnologiyalarni qo‘llash sohasida “Bukhsu Scientific Biotechnology” unitar korxonasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi masala bo‘yicha kimda qanday savol, takliflar bor? Marhamat!

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

**1.** Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi boshlig‘i O.O. Sayfulloyevning Universitet huzurida qishloq xo‘jaligida biotexnologiyalarni qo‘llash sohasida “BukhSU Scientific Biotechnology” unitar korxonasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi ma’lumoti axborot uchun qa‘bul qilinsin.

**2.** 2022-yilning 6-iyul kunida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-307-sonli qarori 7b-ilovasida “Qishloq xo‘jaligida innovatsion biotexnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha “Akademik” MChJ innovatsion korxonasini tashkil etish” vazifalari keltirilganligi va O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 70-moddasida unitar korxonaning firma nomida uning mol-mulkining egasi (ta’sischisi) ko‘rsatilgan bo‘lishi kerakligi qayd etilganligi sababli tashkilot nomi sifatida “BukhSU Scientific Biotechnology” tanlanganligi qayd etilsin.

**3.** Agronomiya va biotexnologiya fakulteti Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasи huzurida qishloq xo‘jaligida biotexnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha “BukhSU Scientific Biotechnology” korxonasi unitar korxona shaklida tashkil etilsin.

**4.** Agronomiya va biotexnologiya fakulteti Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasи huzurida qishloq xo‘jaligida biotexnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha “BukhSU Scientific Biotechnology” unitar korxonasi rahbari sifatida Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasи o‘qituvchisi Jalolov Elbek Baxshilloyevich tayinlansin hamda tegishli buyruq loyihasi tayyorlansin (mas’ul; IIITB boshlig‘i O.O. Sayfulloyev).

**5.** Agronomiya va biotexnologiya fakulteti Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasи huzurida qishloq xo‘jaligida biotexnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha “BukhSU Scientific Biotechnology” unitar korxonasi nizom fondini shakllantirish maqsadida universitet innovatsion jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 10 (o‘n) mln. so‘m mablag‘ korxona hisob raqamiga o‘tkazib berilsin.

**6.** “BukhSU Scientific Biotechnology” unitar korxonasiga o‘z faoliyatini doirasida universitet ilmiy salohiyati hamda moddiy-texnik bazasidan foydalanish huquqi berilsin.

**7.** Ushbu qarorning ijro nazorati Ilmiy ishlар va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor zimmasiga yuklatilsin.

---

## V. TURLI MASALALAR.

### **5.1. 2022-2023 o‘quv yilida ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda Xorijiy fuqaroligi bo‘lgan talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini belgilash to‘g‘risida**

**ESHITILDI: O‘.U.Rashidov** (Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor) Xabarlarining bor O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-61-sonli qarorining 2 bandiga asosan Moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta’lim muassasalariga 2022-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi masalalar bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilgan:

ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini belgilash;

talabalarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lash muddatlarini belgilash va uzaytirish.

Shu bilan birga Oliy va o‘rtा maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 6 sentabrdagi 4/10-2/12-3 xati talabini bajarish maqsadida shuningdek bugungi kunda ta’lim xizmatlari bozorida Buxoro davlat universitetining o‘rnii yuqoriligi, shuningdek, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining hozirgi zamon talablariga javob beradigan keng qamrovli yo‘nalishlari mavjudligini inobatga olgan holda 2022-2023 o‘quv yil uchun Buxoro davlat universitetida ta’lim oladigan Xorijiy fuqaroligi bo‘lgan talabalarni uchun to‘lov-kontrakt miqdorlarini tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha davlat oliy ta’lim muassasalarida belgilangan to‘lov-kontrakt qiymatining 3 baravari miqdorida belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

–Ushbu masala bo‘yicha axborot tugadi. Marhamat, axborot bo‘yicha qanday savol va takliflar bor?

Ushbu masala yuzasidan kengash a’zolari o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda Xorijiy fuqaroligi bo‘lgan talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini tasdiqlashni taklif etishdi.

– Buxoro davlat universitetining 2022-2023 o‘quv yilida ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda Xorijiy fuqaroligi bo‘lgan talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatlarini belgilash to‘g‘risidagi taklifni ovozga qo‘yaman.

Rozilar – 70 nafar

Qarshilar – yo‘q

Betaraflar – yo‘q

### **Yuqoridagilarni inobatga olib, Kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universiteti Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor O‘.U.Rashidovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. 2022-2023 o‘quv yil uchun Buxoro davlat universitetida ta’lim oladigan **Xorijiy fuqaroligi bo‘lgan talabalarni** uchun to‘lov-kontrakt miqdorlari tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha davlat oliy ta’lim muassasalarida belgilangan to‘lov-kontrakt qiymatining 3 baravari miqdorida belgilansin.
3. Ushbu qaror ijrosini nazorat etish Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor O‘.U.Rashidov zimmasiga yuklansin.

---

### **5.2. Professorlik va dotsentlik unvoniga tavsija qilish uchun professor - o‘qituvchilarning attestatsiya ishi hujjatlarini OAK ga yuborish to‘g‘risida**

**5.2.1.** Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Sayfilloyeva Dilfuza Kaxramonovnaning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida.

**5.2.2.** Ekologiya va geografiya kafedrasi mudiri Xolov Yoqub Davronovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida.

**5.2.3.** Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti Farmonov O‘tkir Alimovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida.

**5.2.4.** Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti Raxmonov Rauf Rafsulovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida.

**ESHITILDI: N.G.Dilova** (Kengash kotibi, p.f.f.d., (Ph.D)): - Kengash a’zolariga dotsent ilmiy unvoniga talabgorlar: Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Sayfilloyeva Dilfuza Kaxramonovna, Ekologiya va geografiya kafedrasi mudiri Xolov Yoqub Davronovich, Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti Farmonov O‘tkir Alimovich, Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti Raxmonov Rauf Rafsulovichning O‘zR OAKga yuborish uchun tayyorlagan hujjatlari Nizom talablariga mos kelishini hamda nomzodlarning mazkur unvonga loyiqligini ta’kidlab, tavsija beruvchi kafedra hamda fakultetlarning tegishli yig‘ilish bayonlaridan va ilmiy- texnik kengashning 2022-yil 15-avgustdagi 1- kengash bayoni ko‘chirmalari mavjudligini ma’lum qildi.

Shundan so‘ng, kengash kotibi ilmiy unvonga talabgorlarning so‘nggi yillar mobaynida nashr ettirgan ilmiy, shiuv-uslubiy ishlari natijasi haqida ma’lumot berdi.

Xulosa qilib aytganda, Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Sayfilloyeva Dilfuza Kaxramonovna, Ekologiya va geografiya kafedrasi mudiri Xolov Yoqub Davronovich, Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti Farmonov O‘tkir Alimovich, Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti Raxmonov Rauf Rafsulovich OAKning dotsent ilmiy unvonini olish uchun qo‘ylgan talablarini to‘liq bajargan.

Kengash raisi O.X. Xamidov mazkur lavozimga talabgorning nomzodini tavsija berish uchun ochiq ovoz berish taklifini kiritdi. Kengash a’zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo‘llab-quvvatlashdi.

Kengashda 77 nafar Kengash a’zosida 70 nafari ishtirok etdi.

Ochiq ovoz berish natijasi quyidagicha:

**Talabgorlар:** Raxmatova Mehriniso Musinovna, Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich, Artikova Hafiza To'yumurodovna, Xamroyev Azalshoh Hazratovichlar, Aminov Akmal Shavkatovichga 70 kishi "rozi", "qarshi" va betaraflar yo'q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash **qaror qiladi:**

- Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Sayfilloyeva Dilfuza Kaxramonovna, Ekologiya va geografiya kafedrasi mudiri Xolov Yoqub Davronovich, Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti Farmonov O'tkir Alimovich, Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti Raxmonov Rauf Rafsulovichlar tegishli ilmiy unvonlarga tavsiya etilsin.
- Talabgorlarning hujjatlarini 10 kun muddatda O'zR OAKga yetkazish vazifasi Kengash kotibi N.G.Dilova zimmasiga yuklatilsin. (muddat: 2022-yil 6- oktabrgacha)

**5.3. Universitet ta'lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalg qilish, 2022-2023 o'quv yilda jalg qilinishi rejalashtirilgan professor-o'qituvchilar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida**

**ESHITILDI:** A.T. Jurayev (Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga Universitet ta'lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalg qilish, 2022-2023 o'quv yilda jalg qilinishi rejalashtirilgan professor-o'qituvchilar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida berdi.

2021-2022 o'quv yilida jami 30 dan ortiq **xorijlik** professor-o'qituvchi ta'lim faoliyatini olib bordi. Pandemiya tufayli ularning faqatgina bir necha nafari an'anaviy shaklda dars bergan bo'lsa, aksariyati bilan onlayn shaklda dars berish bo'yicha mehnat shartnomasi imzolandi. Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi, AQShning Fulbrayt dasturi, shuningdek qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ma'ruza o'qigan professor-o'qituvchilardan tashqari, 35 nafardan ortiq xorijlik o'qituvchilar uchun soatbay ish haqi BuxDU byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan **har bir soat uchun 10-15 dollar** atrofida belgilandi. Taklif qilingan xorijlik o'qituvchilarning barchasi jahon akademik reytinglarida **yuqori 1000 talikka kiruvchi OTMlardan** bo'lishi ta'minlandi. Ular qatorida Vatel mehmonxona va turizm biznes maktabi (Fransiya), Sasseks universiteti (Angliya), Myunster universiteti (Germaniya), Moskva davlat universiteti, Qozon federal universiteti (Rossiya) kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin. **Jami 2 ming soatga yaqin** dars xorijlik professor-o'qituvchilar tomonidan o'tildi.

2022-2023 o'quv yilida ularning soni **60 nafarga** yetkazilishi rejalashtirilgan. Shundan kelib chiqib yil oxiriga qadar KOICA markaziga ikki nafar, AQSH elchixonasi tomonidan 1 nafar, Fransiya elchixonasi tomonidan 1 nafar ko'ngilli o'qituvchilarni jalg qilish rejalashtirilgan.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib kafedralar tomonidan 30 sentyabrga qadar dars berishi rejalashtirilgan bir qator o'qituvchilarni jalg qilish nazarda tutilgan.

2021-2022- o'quv yilida dars berish jarayoniga jalg qilinishi rejalashtirilgan professor-o'qituvchilar ro'yxati												
	F.I.SH.	Davlati	Xorijiy OTM nomi	Ilmiy darajasi	Dars berishi rejalashtirilgan fakultet va kafedrasi	Ajra tilga n soat	Fan nomi	Dars berishi rejalashtirili gan vaqt	1 soat dars (akademik) uchun rejalashtirilgan ish haqqi miqdori (\$)	Xalqaro aviachi pta narxi (\$) taxmini y (Borish va Kelish)	Tunash xarajatlari (\$) taxmini y	Kafedra muduri F.I.SH Telefon raqami, Mas'ul o'qituvchi F.I.SH telefon raqami
1	Maydirova Ayqul Bulatovna	Qozog'iston	Qozog'iston Yevroosiy milliy universiteti	Professor	Iqtisodiyot va turizm Marketing va menejment	44 soat	Mehmonxonan xo'jaligi menejmenti	07.11.2022 19.11.2022	15	1000	360	O.K.Xurramov +998 91 414 95 55 Tadjiyeva

											S.U. +998906110 928	
2	Karatayev Didar Dautovich	Qozog'iston	M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti	Dotsent	Iqtisodiyot va turizm Marketing va menejment	72	Turizm va mehmonxon a xo'jaligi marketingi	31.10.2022 18.11.2022	15	1000	360	O.K.Xurramo v +998 91 414 95 55 Tadjiyeva S.U. +998906110 928
3	Kadirov Djavlonbe k	Yangi Zelandiya	Yangi Zelandiya Vellington Viktoriya universiteti	Dotsent	Iqtisodiyot va turizm Marketing va menejment	72	Marketing tadqiqotlari	01.11.2022 30.11.2022	15	2700	360	O.K.Xurramo v +998 91 414 95 55 Tadjiyeva S.U. +998906110 928
4	Ivlieva Olga Vasilevna	Rossiya Federatsiyasi	Janubiy Federal universiteti	Profess or	Iqtisodiyot va turizm Marketing va menejment	60	Mintaqaviy turizm resurslari	03.04.2023 12.04.2023	15	1000	362	O.K.Xurramo v +998 91 414 95 55 Tadjiyeva S.U. +998906110 928
5	Carol Ermakova	Angliya	Darem Universiteti (Durham University)	O'qituv chi	Xorijiy tillar Ingliz adabiyotshunosl igi	120	Stilistika, tarjima nazariyasi	01.03.2023 01.04.2023	15	1500	1000	M.B.Ahmedo va +998905142 882
6	Sumaira Nawaz	Kanada	McGill Universiteti	PhD	Xorijiy tillar Ingliz adabiyotshunosl igi	90	Adabiyot nazariyasi	01.03.2023 30.03.2023	15	1000	360	F.M.Xajiyeva +99891 448 44 80
9	Bolshanik Petr Vladimiro vich	Rossiya Federatsiyasi	Omsk davlat pedagogika universitetet	Dotsent	Ekologiya va geografiya	40	Tuproq geografiyasi	10.10.2022 01.04.2023	15	1200	400	Y.D. Xolov +998914458 855

E'tiboringiz uchun rahmat! Savollar bo'lsa marhamat.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov ushbu masala bo'yicha so'zga chiquvchilar bormi?**

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolaridan prorektor R.G'. Jumayev, dekanlar: N. Atabayev, S. D. Yavmutov so'zga chiqib o'z takliflar, fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Kun tartibidagi masala bo'yicha **Kengash qaror qiladi:**

1. Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T. Jurayevning ma'lumoti axborot uchun qabul qilinsin.
2. Xorijlik mutaxassis va vatandoshlarning ta'lim, ilm-fan, tashkiliy-boshqaruva jarayonlariga jalgan etilishi universitetda ta'lim va boshqaruva jarayonlarini takomillashtirish nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlansin.
3. Universitetga taklif etiluvchi xorijlik mutaxassis va vatandoshlarning yuqori malakali bo'lishi shartligi ta'kidlab o'tilsin. Ularga to'lanadigan ish haqi ish haqi soatbay, ishbay yoki lavozim hissasi asosida o'zaro kelishiladigan valyutada, O'zbekiston qonunchiligidagi belgilangan soliq va to'lovlar to'langanidan so'ng, to'g'ridan-to'g'ri naqd ko'rinishda yoki pul ko'chirish orqali mutaxassisining xorijda yoki O'zbekistonda ochilgan bank hisobraqamiga (plastik kartasiga) o'tkazib berilishiga ruxsat berilsin. Ish haqqi universitet kengashining 2021/2022 o'quv yili 7-son yig'ilish bayoni asosida hisoblansin.

4. Professor-o'qituvchining kunlik, sutkalik, ikki tomonga aviachiptalarni sotib olish xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017 yildagi PQ-2909-sont asosida qoplansin.

5. 1-jadvalda taqdim etilgan, dars berish maqсадida taklif etilishi belgilangan professor-o'qituvchilarga dars o'tishi uchun ruxsat berilsin. Darslarni o'z vaqtida tashkil etish va olib borish vazifasi fakultet o'quv ishlari bo'yicha dekan muovinlari va kafedra mudiriga yuklansin.

6. Ushbu qaror ijrosi Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor va Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor zimmasiga yuklansin.

**O.X. Xamidov (Kengash raisi)** Buxoro davlat universiteti kengashi raisi bugungi navbatdan tashqari kengash yig'ilishi kun tartibiga kiritilgan masalalar muhokama qilinganligini va kengash o'z ishini yakunlaganligini ma'lum qildi. Kengash o'z ishini tugatdi.

BuxDU kengash raisi  
BuxDU kengash kotibi



O.X. Xamidov  
N.G. Dilova

E'tiborli surʼati bilan qayd qilinadi. BuxDU kengash raisi O.X. Xamidovning qayd qilishi.

2. roydani A. M. nafasib, yangʼamut. O.X. Xamidovning qayd qilishi bilan qayd qilinadi. BuxDU kengash raisi O.X. Xamidovning qayd qilishi bilan qayd qilinadi.

Koʼsasiga qayd qilinadi. BuxDU kengash raisi O.X. Xamidovning qayd qilishi bilan qayd qilinadi.

Ushbu surʼati bilan qayd qilinadi. T.A. qayd qilishi bilan qayd qilinadi. BuxDU kengash raisi O.X. Xamidovning qayd qilishi bilan qayd qilinadi.

Ushbu surʼati bilan qayd qilinadi. T.A. qayd qilishi bilan qayd qilinadi. BuxDU kengash raisi O.X. Xamidovning qayd qilishi bilan qayd qilinadi.

Ushbu surʼati bilan qayd qilinadi. T.A. qayd qilishi bilan qayd qilinadi. BuxDU kengash raisi O.X. Xamidovning qayd qilishi bilan qayd qilinadi.